

“Zamonaviy axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda butlovchi qismlarni yetkazib berish” xizmatini ko‘rsatish reglamenti

1. Xizmat tavsifi (pasporti)

1.1. Xizmat nomi

Butlovchi qismlarni yetkazib berish uchun elektron ariza taqdim etish tartibi to'g'risidagi interaktiv xizmat

1.2. Xizmat natijasi

Butlovchi qismlarni yetkazib berish uchun shartnoma tuzish huquqiga ega bo'lish;

Talablarga mos kelmagan holda rad javobini olish;

1.3. Xizmat ko‘rsatish organlari va shakllarni olish joyi.

“O‘ZAVTOSANOAT” AK, GM Uzbekistan» AJ QK, “SamAvto” MChJ, «JV MAN UZBEKISTAN» MChJ QK

1.4. Huquqiy asoslar

2013 yilda davlat xizmatlarini interaktiv shaklga o'girish bo'yicha MANZILLI DASTUR– Tadbir rejasi № 08-12-75

1.5. Xizmatdan foydalanuvchilar O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi bilan belgilangan, tegishli ruxsat beruvchi hujjatlarga ega bo‘lgan va tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanuvchi barcha yuridik shaxslar.

1.6. Hujjatlarni topshirish muddati

Cheklanmagan

1.7. Bajarish muddati

Bajarish muddati belgilanmagan

2. Xizmatni ko‘rsatuvchilarga ma'lumot berish

2.1. Ma'lumotlarning tarkibi va hajmi

Rad javobini olgan holda, uning sabablarni tushuntirib berishni talab qilgan yuridik shaxslar ma'lumotlarida ko'rsatilgan pochta manzili, telefon aloqasi yoki faks orqali ishchi guruhga yozma murojaat qilishi mumkin.

2.2. Batafsil ma'lumot berish

Batafsil ma'lumotlarni "O'ZAVTOSANOAT" AKning rasmiy saytidan uzavtosanoat.uz hamda yig'uvchi korxonalar («GM Uzbekistan» YoAK QK, «SamAvto» MChJ, «JV MAN UZBEKISTAN» MChJ QK)dan olishingiz mumkin.

2.3. So'rovnoma bo'yicha ma'lumot berish

Telefon orqali: 9-00 dan 18-00 gacha konkurs tanlovida qatnashish tartibiga tegishli har qanday savol bo'yicha og'zaki konsultatsiya berish.

Faks orqali: 9-00 dan 18-00 gacha so'rov bo'yicha yozma hujjatlarni jo'natish (3 varaqqacha).

Elektron pochta orqali: har qanday yozma so'rovlarni tekstning keng tarqalgan formatlarida sutkalab qabul qilish (oddiy tekst, DOC, RTF, PDF formatda ilova qilingan fayl yoki kelishuvga binoan, 9-00 dan 18-00 gacha yozma hujjatlarni oddiy tekst formatida yoki DOC, RTF, PDF formatda ilova qilingan holda) yoki kelushuvga binoan boshqa formatda, hozirgi standartdagi jo'natishga tayyor fayllar, kerakli shakllar mavjud.

3. Xizmat ko'rsatish

3.1. Ish vaqti

Ish vaqti 9-00 dan 18-00 gacha. Dam olish kuni: shanba, yakshanba.

4. Xizmat ko'rsatish tartibi

4.1. Kerakli (zarur) hujjatlar:

Xizmat ko'rsatish uchun 4.3 bandeda belgilanganlaridan tashqari, boshqa hujjatlarni ro'yxatdan o'tkazish talab qilinmaydi.

4.2. Xizmat uchun to'lov

Xizmat bepul.

4.3. Davlat xizmatlarini ko'rsatishning ichki idoraviy tartibi

1) 1 tartib: talablarga binoan 1-oy muddat ichida talabgorlarning kvalifikatsiya tanlovi, talab etilgan hujjatlarning borligi va to'g'ri rasmiylashtirilganligi tekshiriladi, huquqiy (qonuniy) hujjatlarning (guvohnoma, patent, litsenziya va hokazo) borligini tekshiradi.

2) 2 tartib: Ishchi guruh tomonidan tushgan takliflardan o'rganib chiqish.

4.4. Rad qilish uchun asos:

- xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan shaxsda, xizmatni olish uchun huquqi bo'lmasa yoki boshqa shaxs nomidan ish yuritish uchun vakolatga ega bo'lmasa;

- xujjatlar belgilangan talablarga mos kelmasa (hujjatlarning to'liq emasligi, noto'g'ri to'ldirilganligi);

- xizmatdan foydalanish uchun murojaat qilgan shaxs, belgilangan talablarga mos kelmasa;

5. Sifat bilan ta'minlash

5.1. Sifatsiz xizmatlar uchun shikoyat

Talabgorlar "O'zavtosanoat" AK rahbariyatiga tegishli xat jo'natish bilan, ehtiyoj butlovchi qismlarni yetkazib berish uchun elektron ariza ko'rib chiqilmaganligi yuzasidan, kompaniyaning ishchi guruhi ustidan shikoyat qilish huquqiga ega.